

TARJIMA SIRLARI VA MUAMMOLARI

Andijon davlat chet tillari isntituti
Roman-german va slavyan tillari fakulteti
Nemis tili ta'lim yo'nalishi 101-guruh talabasi
Adaxamjonova Gulsanam Dostonbek qizi
Tel: +998944220720
Ilmiy maslahatchi: **Kabulova U.S**

Annotatsiya: Maqolada tarjima san'ati va uning murakkab jihatlari, shu jumladan, tarjimada uchraydigan asosiy muammolar va sirlar keng yoritilgan. Tarjima jarayoni nafaqat lingvistik bilimni, balki madaniyatlararo aloqalar, kontekstni va stilistik xususiyatlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Asosiy muammolar orasida ma'no va hissiyotning yo'qolishi, madaniyatlararo farqlar, grammatika va sintaksisdagi farqlar, konnotatsiya, so'zning ekspressivligi, dialektlar va mahalliy til ishlatishdagi qiyinchiliklar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, madaniyatlararo farqlar, ma'no, hissiyot, grammatika, sintaksis, moslashtirish (localization), parafrazlash, kontekstual yondashuv, stilistik muammolar, dialekt, ekvivalent, tarjimon.

Аннотация: В статье рассматривается искусство перевода и его тонкости, в том числе основные проблемы и загадки, возникающие при переводе. Процесс перевода требует не только лингвистических знаний, но и межкультурных связей, контекста и стилистических особенностей. Среди основных проблем — потеря смысла и эмоций, межкультурные различия, различия в грамматике и синтаксисе, коннотации, выразительности слов, диалектов и трудности в использовании местного языка.

Ключевые слова: перевод, межкультурные различия, смысл, эмоция, грамматика, синтаксис, локализация, перефразирование, контекстуальный подход, стилистические проблемы, диалект, эквивалент, переводчик.

Abstract: The article covers the art of translation and its intricacies, including the main problems and mysteries encountered in translation. The translation process requires not only linguistic knowledge, but also cross-cultural relations, context, and stylistic features. Among the main problems are the loss of meaning and emotion, cross-cultural differences, differences in grammar and syntax, connotation, expressiveness of words, dialects and difficulties in using the local language.

Key words: translation, intercultural differences, meaning, emotion, grammar, syntax, localization, paraphrasing, contextual approach, stylistic problems, dialect, equivalent, translator.

Tarjimaning birlamchi sharti til bilish bo'lsada, tarjima uchun faqat shuning o'zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko'pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to'g'ri keladiki, bu g'ayrilisoniy omillar deyiladi.

Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog'liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o'tgan, tildan tashqari muammolari g'ayri lisoniy muammolar hisoblanadi¹.

G'.Salomovning yozishicha, "Tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o'tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an'ana, ikki she'riy sistema, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to'qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir" deydi.

Tarjimon tarjima jarayonida lingvokulturologiya sohasida ko'plab muammolarga duch kelishi mumkin. Lingvokulturologiya "til va madaniyat"ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. Tarjima jarayoni har bir tarjimonning individual ijod jarayoni, lekin shunday jarayonlar borki bunda tarjimon individual munosabat bildirsa olmaydi bu masala aksariyat holatlarda xalqning o'ziga xosligi, ya'ni lingvomadaniy so'zlari orqali namoyon bo'ladi, bu jarayonda tarjimon shaxsiy tushunchalari bilan ish tuta olmaydi yoki tarjima jarayonida bu kabi so'zlarni tarjimadan tushirib qoldira olmaydi bunday sharayonda muqobil, ya'ni adekvat tarjimaga erishish uchun quyidagi tarjima usullaridan foydalanish mumkin²:

1. Translitteratsiya. Ushbu usulda termin asliyat tilida qanday bo'lsa grafik ya'ni harfma har qanday bo'lsa shunday tarjima qilinadi.

2. Transkripsiya. Tovush formalari orqali tarjima qilish usuli ya'ni tarjima qilinilayotgan tilda qanday aytilsa huddi shunday talaffuz qilib.

3. Kalka usulida tarjima qilish. Ushbu tarjima turi tarjimon uchun eng qulay usullardan biri hisoblanib aynan bir tilda bor terminning ikkinchi bir tildagi semantikasini to'liq saqlab qolgan tarzda so'zma so'z tarjima to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish.

4. Izohli tarjima usuli. Izohli tarjima usuli bir tilda mavjud bo'lgan termin boshqa bir tilga tarjima qilish³.

Jarayonida muqobil varianti topilmagan taqdirda aynan o'sha terminga izoh berish orqali tarjima qilish tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug'atlar ma'lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatda lug'atlarda so'z nia'nosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lug'ati qanchalik mukammal bo'lmasin, unda so'zlarning barcha ma'nolari yoki ma'no nozikliklarini qamrab olishning iloji yo'q, chunki lug'at ikki til tizimi unsurlari bilan ish ko'radi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, nutq mahsuli

¹ Tarjima muamolari (maqolalar to'plami). – Toshkent: Samarqand, 1991.

² Tarjima muamolari (maqolalar to'plami). – Toshkent: Samarqand, 1991.

³ [https:// scienceweb.uz](https://scienceweb.uz).

bo'lmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko'p ma'noli so'zning qaysi ma'nosi qo'llanilganligini kontekst asosida o'zi aniqlamog'i lozim.

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Affikslar, grammatik qo'shimchalar va so'z yasalishi, sintaktik modellar, so'z tartibi, yordamchi so'zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki shakliy ma'noni, leksik ma'nolarning aniq shaklini ko'rsatishga xizmat qiladi⁴. Tarjima qilish jarayonida bu ma'nolarni ifodalash muhim muammodir.

Tarjima jarayonida turli leksik, semantik, stilistik, grammatik, muammolarga uchramaslik uchun so'zma so'z tarjima qilish emas, balki gapning konteksiga qarab yoki uning ma'nosidan kelib chiqqan holda tarjima qilish yoki muqobil variantini olgan holda tarjima qilish kerak. Shuning uchun ham tarjima jarayonida so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanilmaydi, ma'nosidan kelib chiqqan holda asliyat tilidan o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilinadi⁵.

Tarjimaning birlamchi sharti til bilish bo'lsa-da, tarjima uchun faqat shuning o'zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko'pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to'g'ri keladiki, bu g'ayrilisoniy omillar deyiladi. Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog'liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o'tgan, tildan tashqari muammolari g'ayri lisoniy muammolar hisoblanadi⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarjima muammolari (maqolalar to'plami). – Toshkent: Samarqand, 1991.

Axborot manbalari:

1. <http://world.lyjournals.com>
2. <http://nauchniyimplus.ru>
3. <https://talqinvatadqiqotlar.uz>
4. <https://scienceweb.uz>.

⁴ <http://world.lyjournals.com>

⁵ <https://talqinvatadqiqotlar.uz>

⁶ <http://nauchniyimplus.ru>